

## SOTSIAL INTELEKTNING PSIXOLOGIK TADQIQ ETILGANLIK HOLATI

**Orifov Akramxon Sobir o'g'li**

*Guliston davlat universiteti stajor o'qituvchisi  
Elektron pochta:orifovakramxon564@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada sotsial intellektning psixologik tadqiq etilganlik holati, sotsial intellekt muammosini psixologiyada tadqiq etilganlik holatini bir qancha olimlarning izlanishlari va qarashlari haqda so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Intellekt, sotsial, etnos, ta'lim, aqliy faoliyat usullarini, faoliyat metodlari, o'smirlarda taqqoslash usuli.*

Intellekt muammosi qadim zamonlardan buyon mashhur olimlarning tadqiqot ob'ekti bo'lib kelgan va hozirgi kunda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy taraqqiyotning o'rta asrlariga kelib, intellekt terminining mazmuni yanada boyidi. Masalan, sxolastikada ilohiy intellekt tushunchasi o'rganila boshlandi. Bu termin bilan oliy bilish qobiliyatlarini tushuntirishga harakat qilindi. Intellekt muammosi chet el psixologiyasida ham, rus psixologiyasida ham eng ko'p o'rganilayotgan mavzulardan biridir. Intellektning mohiyatini yoritish yuzasidan turlicha yondashilsada, biroq umumiy maqsad insonning intellektual taraqqiyotini ochib berishdan iborat. Intellekt tushunchasini rus psixologlari aqliy iste'dod yoki qobiliyat deb yuritishadi. Chet el psixologiyasida qobiliyatni miqdor jihatdan o'lchash hamda uni xarakterlab berish berish uchun intellekt tushunchasi kiritilgan. O'z davrining yirik psixologlari bo'lgan R.B.Kettel, L.Termen, CH.Spirmen va boshqalar o'tgan asrning inson qobiliyati darajasini o'lchash uchun turli xarakterdagi intellektual testlarni yaratganlar. Bundan kuzatilgan maqsad turli ixtisoslar uchun kasb tanlashni amalga oshirish yoki kasbga yaroqliligini, layoqatligini aniqlashdan iboratdir.

Aqliy taraqqiyot masalasi uchun N.S.Leytes tadqiqoti alohida ahamiyatga ega. U aql sifatlarini o'z ichiga qamrab oluvchi umumiy aqliy qobiliyatlar bilan bir qatorda sotsial va emotsional qobiliyatlari odamning nazariy bilimi va amaliy faoliyatidagi imkoniyatlarini tavsiflab beruvchi omil deb ta'kidlaydi. Tevarak – atrofni qurshab olgan borliqdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi ichki bog'lanish va munosabatlarni aks ettirish hamda voqelikni ijodiy ravishda qayta o'zgartirish imkoni odam aqli uchun asosiy omil deyiladi. Muammoning genetik negizini e'tiborga olgan N.S.Leytes oliy nerv faoliyati xususiyatlarida ayrim shart –sharoitlar yashiringan bo'lishini, bular umumiy aqliy qobiliyatlarni tarkib toptirishning muhim ichki sharti ekanligini asoslab beradi. Umuman olganda shaxsning umumiy intellekti bilan birgalikda sotsial intellekti alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham sotsial intellekt muammosini psixologiyada tadqiq etilganlik holatini bir qancha olimlarning izlanishlari va qarashlarida ko'rib o'tishimiz mumkin.

XX – asr oxiri va XXI – asr boshlarida jahon psixologiyasida sotsial intellekt, uning diagnostikasi, o'ziga xos xususiyatlari va rivojlantirish usullari muammosiga ko'p e'tibor qaratilmoqda. Chet el va rus psixologiyasida sotsial intellekt borasida keng ko'lamdagi tadqiqotlar olib borilgan bir sharoitda unga murojaat qilish muhimdir. Sotsial intellekt muammosini shaxsning kasbiy kamolotiga ta'siri, ta'lim – tarbiya jarayoni va shaxsning ijtimoiy moslashuvi, shaxslararo munosabatlar samaradorligini ta'minlashda muhim sanaladi. Ilmiy adabiyotlarda sotsial intellektni o'rganishga doir bir qator izlanishlar mavjudki, ularda sotsial intellekt va uning tuzilishi, diagnostikasi, gender xususiyatlari va kasbiy faoliyat bilan aloqadorligi sotsial intellektni shaxsning ijtimoiy moslashuvidagi roli haqida so'z boradi. Shunga doir izlanishlarni D.Veksler, J.Gilford, O.Djon, S.Kosmitiskiy, G.Ollport, N.Kentor, E.Torndayk, A.A.Bodalev, V.N.Drujinin, Yu.N.Emelyanov, D.V.Ushakov va boshqalarni ishlarida ko'rishimiz mumkin.

Shaxsning sotsial va umumiy intellekti tavsifini yoritishda Amerikalik psixologlar o'ziga xos usulda yondashadi. Biroq bu muammoni hal etishda ular boshqacharoq yo'l tutishadi, ya'ni asosan quyidagilarga bog'liqligi ta'kidlanadi:<sup>15</sup>

- yoshga;
- jinsga, dunyoga kelish tartibiga;
- etnos, millat, elatlarga;
- oilaning ijtimoiy – iqtisodiy statusiga;
- ota – onalarning ma'lumotligiga.

Sotsial intellekt o'z navbatida insonning ma'lum bilimlarni o'zlashtirish yoki yangilik ochish bilan bog'liq psixik faoliyatni hamda sotsial – sababiy bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va prognoz qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Atoqli psixolog J.Gilford (1959) intellekt tuzilmasini o'rganganligi ayniqsa qiziqarlidir. J.Gilford intellektning 120 ga yaqin omilini ajratib ko'rsatgan. J.Gilford o'zining intellektning kubik shaklidagi modelida tafakkur o'lchamlarini (bilish funksiyasi, xotira, divergent va konvergent tafakkur, baholash, mazmun, obrazli, belgili, semantik, xulqiy, natija, elementlar, darajalar, aloqa, munosabat, tizim, sistema, o'zgartirish, islohat, qo'llash, tatbiq qilish kabi aqliy qobiliyat tizimlarini) ajratib o'rgandi.

- Bunda mazmun – individning bir narsa va xodisa haqida o'ylashi;
- operatsiya (jarayon) – qanday tarzda o'ylayotganligi;
- natija – aqliy faoliyat natijasi kabi xarakteristikalar keltiriladi.

Shuningdek, J.Gilford aqliy qobiliyat divergent va konvergent tafakkur turlari negizidagi ijodiy tafakkurdan iborat ekanligini dalillab berdi. J.Gilford tadqiqotlari aqliy qobiliyatni keng tadqiq etish uchun katta imkoniyatlar ochib berdi. Haqiqatdan ham aqliy qobiliyat darajasining past yoki yuqori ekanligi shaxsning xodisalarga hamda muammo echimiga nisbatan ijodiy munosabatida o'z ifodasini topadi. J.Gilfordning

<sup>15</sup> Jo'rayev T.S. Aqliy taraqqiyot - borliqni bilishning asosiy omili. Xalq ta'limi. 2003. b-40.

fikricha, qobiliyat intellektni umumiy modelining ichida joylashadi, shu boisdan u kreativlikning 4 omilini ajratib ko'rsatadi.

1. Originallik – izohlanishiga mo'ljallangan birikmalar, o'zgacha (kutilmagan) javoblar natijalarini ko'rsatadi;
2. Semantik egiluvchanlik – ob'ektning funksiyasini ajratish va undan yangicha foydalanishni taklif qilish qobiliyati;
3. Ifodali moslashtirilgan egiluvchanlik – yangi imkoniyatlarni ko'rish uchun rag'batlantiruvchi omillar shaklini o'zgartirish qobiliyati;
4. Semantik o'z – o'zidan yuzaga keluvchi egiluvchanlik – nisbatan cheklangan vaziyatlarda turli xil g'oyalar yaratish qobiliyati.

J.Gilford ijodiy qobiliyatlarni ayrim taxminiy tuzilishlar sifatida namoyon bo'ladi deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari insonning sotsial intellekti va kreativligi bilan bog'liq masalalarni Kabanova – Meller tadqiqotlarida ko'rish mumkin. Kabanova – Meller taqqoslash, mavhumlashtirish va umumlashtirish kabi fikr yuritish usullarini tarkib toptirish hamda ularni yangi sharoit yoki vaziyatga ko'chirish natijasida o'quvchilar aqliy taraqqiyotida siljish vujudga keladi degan nazariyani ilgari suradi. Bu masalani amalga oshirish maqsadida turlicha metodlardan foydalanib ish yuritadi. Kichik yoshdagi o'smirlarda taqqoslash usulini tarkib toptirish uchun sharoit yaratadi. O'quvchilar geometrik shakllarni taqqoslash orqali ularning o'xshash va farqli tomonlarini ajratishga o'rganadilar. Bu usul yordamida yangi vaziyatdagi topshiriqlarni echishga muvaffaq bo'ladilar va shaxslararo munosabatga kirishishda boshqa insonlarning kechinmalarini oldindan payqay oladilar. Bu esa sotsial intellektni o'sishiga yordam beradi deb ta'kidlaydi. Kabanova – Meller tadqiqotlari bo'yicha o'quvchilarning aqliy taraqqiyoti 3 mezon bilan aniqlanadi:

- 1) Ta'lim jarayonida shakllantirilgan ko'nikma, malaka va aqliy faoliyatning yangi sharoitga (predmetlararo qo'llanishga) ko'chish masalasi;
- 2) Bolalarda tarkib topgan ko'nikma, malaka va aqliy faoliyatdan shaxsning o'z aqliy faoliyatini bevosita idora qilishga va boshqarishga o'tishdir;
- 3) Tashqi ta'sir natijasida o'quvchilarning bilishga qiziqishi qay darajada ekanligini o'rnatish.

Shunga o'xshash tadqiqotlarni rus psixologiyasida ham ko'rishimiz mumkin. I.N.Pospelov aqliy faoliyat usullarini faoliyat bajaraladigan yo'llar deb ta'riflaganlar, bu yo'llar ma'lum harakatlar ro'yxatida ifodalanishi mumkin. Aqliy harakatlar sotsial intellektning mustaqil elementi bo'lib, ob'ektni qayta o'zgartirishga qaratilgan o'zaro bog'liq operatsiyalar sistemasidan iborat. Bunda tafakkur operatsiyalari – alohida, tugallangan va takrorlanadigan aqliy harakatlar bo'lib, ular yordamida tafakkur dastlabki ma'lumotga ega bo'ladi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirish quroli sifatida qo'llanilganida aqliy faoliyat usullarini tashkil qiladi deb ta'kidlaydi.

E.L.Yakovleva va N.A.Aminova tajribalarida quyi sinf o'quvchilarida bilish va kreativ qobiliyatlarni farqlash uchun kognitiv asoslar mavjudligi tasdiqlanadi. Bunday asoslarning mavjudligi shaxsning sotsial intellekti va ijodiy tafakkur taraqqiyotiga

turtki beruvchi, uni susaytiruvchi sabablar va sharoitlarni tadqiq qilish imkonini beradi. Shunga o'xshash tadqiqot E.I.Sheblanova tomonidan quyi sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkuri iste'dodli bolalar uchun tuzilgan dastur bo'yicha o'qitilganda sodir bo'lishi isbotlangan. Olingan natijalar maxsus dastur bo'yicha ommaviy sinf o'quvchilarini o'qitishda ham foydali ekanligi tasdiqlangan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Анастази А,Урбина С.Психологическое тестирование.СПб.2001.с – 686.
2. Адизова Т.М.Психокоррекция.Т.2006.б-37.
3. Боцманова М.Э.Новые исследования в психологии и возрастной физиологии.М.Педагогика.1989.с – 141.
4. Виноградов Р.И,Фадеева И.П.Диалоговое обучения развитие мышления.1998.с – 33.
5. Getzels, Jackson.Creativity and intelligence. New York.1992.p – 173.
6. Guilford G.Isolation and prescription occupational stereotypes. Psychol.1997.p – 57 – 67.
7. Guilford G.Intellectual factors in productive thinking.New York.1997.p – 48.